

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

B.Sh.Shermuhhammadov, O.R.Raxmatov Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining mediasavodxonligini rivojlantirish ehtiyojlari va zarurati	8
U.R.Radjabov, K.B.Xakimjanova Maktabgacha ta'lim muassasi tarbiyalanuvchilarini harakatli o'yinlar orqali bolalar psixologiyasini va nutqini rivojlantirish uslublari	12
X.A.Yulbarsova Loyihaviy ta'lim - bo'lajak sotsiologlarda ijtimoiy kompetentlikni rivojlantirishning amaliy-texnologik tizimi sifatida	16
Sh.A.Mamajonov Oliy ta'limda ekologik tarbiya mexanizmlarini rivojlantirishning maqsad va vazifalari	21
B.Q.Qurbonova Ta'lim jarayonida hamkorlikka yo'naltirilgan pedagogika – shaxsga yo'naltirilgan ta'limning zamonaviy texnologiyalari	25
B.B.Musayev Aholi salomatligini sog'lomlashtiruvchi dasturining umumiy yo'nalishi	31
N.N.Azizov Yuqori malakali kurashchilarning musobaqaoldi texnik-taktik tayyorgarligini boshqarishning ilmiy-metodologik asoslari	35
O.Q.Xasanova Bo'lajak nemis tili o'qituvchilarida og'zaki xatolar bilan ishlash ko'nikmasini shakllantirishning pedagogik asoslari	42
P.A.Xamrokulov, S.G.Go'furov Физическое воспитание в системе дошкольного образования	48
R.N.Nazimov O'qituvchining pedagogik texnikasi	52
X.M.Shermatova, G.A.Karaboyeva Zamonaviy ta'lim tizimini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rni	58
U.Q.Maqsudov, M.O.Yuldasheva Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish savodxonligini oshirishda o'yin va multimedia vositalaridan foydalanish metodlari	62
O.M.Erkaboyev Bolalarning harakat potentsialini maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maqsadli oshirish metodologiyasi	66
X.M.Ismoilova Hozirgi davrda Farg'ona vodiysi oila qadriyatlariga ta'sir etuvchi destruktiv omillar	73
G.B.Karimova O'qitish jarayonida faol va interaktiv ta'limning asosiy usullaridan foydalanish hamda ularni qo'llash shakllari va maqsadlari	77
З.Б.Санакуллова Технология выполнения упражнений юными гимнастками с предметами	81
A.M.Nurmuhamedjanov Yoshlar musiqiy tafakkurini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	86
O.F.Qambarov Kichik maktab o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini tabaqalashtirish asosida sog'lom turmush tarzini shakllantirish	93
I.Qirg'izov Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining Forobiy qarashlari asosida kasbiy-pedagogik mahoratini rivojlantirish metodikasi	96
I.I.Tuyichiyeva O'qituvchi faoliyatida pedagogik va kommunikativ qobiliyatlar	100



UO'K: 37.015.3:78.071

**BO'LAJAK MUSIQA TA'LIMI O'QITUVCHILARINING FOROBIY QARASHLARI
ASOSIDA KASBIY-PEDAGOGIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI****МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНО-ПЕДАГОГИЧЕСКОГО
МАСТЕРСТВА БУДУЩИХ ПЕДАГОГОВ МУЗЫКАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ НА ОСНОВЕ
ПРОГНОЗНЫХ ВЗГЛЯДОВ****METHODOLOGY FOR THE DEVELOPMENT OF PROFESSIONAL AND
PEDAGOGICAL SKILLS OF FUTURE MUSIC EDUCATION TEACHERS BASED ON
FORWARD-LOOKING VIEWS****Qirg'izov Imyamin**

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Аннотация

Musiqa ta'limida kasbiy-pedagogik mahoratni rivojlantirishga qaratilgan tizimni takomillashtirish ehtiyoji ortib bormoqda. Yosh avlodni musiqa va ashula san'atlari yordamida tarbiyalash jarayoniga tizimli yondashish o'zining maqsadliligi va izchilligi bilan tavsiflanadi. Shu ma'noda ushbu maqolada Abu Nasr Forobiyning musiqiy qarashlari va uning bo'lg'usi musiqa ta'limi o'qituvchilarida pedagogik mahoratni rivojlantirishdagi ahamiyati ochib berilgan.

Аннотация

Возрастает необходимость совершенствования системы, направленной на развитие профессионально-педагогических навыков в музыкальном образовании. Системный подход к процессу воспитания молодого поколения с помощью музыкально-певческого искусства характеризуется своей целенаправленностью и последовательностью. В этом смысле в данной статье раскрываются музыкальные взгляды Абу Насра Фараби и их значение в развитии педагогического мастерства у будущих учителей музыкального образования.

Abstract

There is an increasing need to improve the system aimed at developing professional and pedagogical skills in music education. A systematic approach to the process of educating the younger generation through the art of music and singing is characterized by its purposefulness and consistency. In this sense, this article reveals the musical views of Abu Nasr Farabi and their significance in the development of pedagogical skills among future music education teachers.

Kalit so'zlar: маънавият, маърифат, фалсафий, суръат, антропология, фазилат, экспрессив, рухий тароват, ижтимоий фикр.

Ключевые слова: духовность, просвещение, философский, темп, антропология, добродетель, выразительность, духовность, общественная мысль.

Key words: spirituality, enlightenment, philosophical, pace, anthropology, virtue, expressive, spirituality, social thought.

KIRISH

Mamlakatimiz ta'lim tizimi oldiga ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, uning ochiqligi, insonparvarligi hamda shaxsga yo'naltirilganligi, ta'limning barcha bo'g'inlari orasidagi uzviylikni, dunyo ta'lim muhiti bilan integratsiyalashuvini ta'minlash kabi bir qator muhim dolzarb vazifalarni bajarish masalasini ko'ndalang qilib qo'ydi.

Zamonaviy pedagogik fanning muhim yo'nalishi o'qituvchini o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan vositalar va sharoitlarni izlashdir. Bu borada Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevning "Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz"[1:124] degan fikrlari ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan oliy ta'limning pedagog xodimlari zimmasiga katta mas'uliyat yuklaydi.

So'nggi yillarda davlatimiz rahbari tomonidan ta'lim ijodkorlariga qaratilayotgan e'tibor va ehtirom soha vakillarining mehnatini rag'batlantirishi bilan birga har bir ijodkorning ijtimoiy

mas'uliyatini ham oshirib, o'z faoliyatiga yangicha nuqtai nazar bilan qarashga da'vat etdi. Shu o'rinda ta'kidlashimiz kerakki, Prezident Shavkat Mirziyoyev: "Musiq – hech narsa bilan o'lchab, solishtirib bo'lmaydigan beqiyos ilohiy ta'sir kuchiga ega", deya ta'kidlar ekan, musiqa san'ati madaniy fenomen sifatida yangi avlodni tarbiyalash va kamolga yetkazish borasida cheksiz imkoniyatlarga egadir. San'at bilan oshno bo'lgan yoshlarning hayotga munosabati, milliy urf-odat va umumbashariy qadriyatlarga hurmati baland bo'ladi. Shu nuqtai nazardan 2023-yil 22-dekabr kuni Prezidentimizning Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqida: "Musiq va raqs san'ati masalalarini ilmiy o'rganish, sohada ilmiy kadrlarni ko'paytirish maqsadida ilmiy tadqiqotlar uchun grantlar joriy qilinadi"[2] mazmunidagi tashabbuslari asosida musiqa san'ati sohasidagi buyuk allomalar hayoti va faoliyatlarini chuqur ilmiy o'rganish va ularning ijodiy merosidan bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarini mustahkam qurollantirish zarurati namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Jahonda fanning obro'si keng miqyosda ko'tarilib borayotgan, yangi-yangi kashfiyotlar ochilayotgan bir davrda ajdodlar tomonidan yaratilgan ilmiy-madaniy merosni o'rganishda shunday plyuralistik yondashuvlar paydo bo'ldiki, bunday yondashuvlar fan, texnika va texnologik taraqqiyotga keng yo'l ochsa, ikkinchidan, ilmiy jamoatchilik tomonidan tan olingan vorisilik tamoyillarini yangi paradigmalarda shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday o'zgarishlar milliy-madaniy merosni yanada boyitib, barkamol insonni tarbiyalashdagi yangicha yondashuvlarning shakllanishiga turtki bo'layotganligini ko'rsatadi[5:1170-1171].

Abu Nasr Forobiyning falsafiy qarashlari, xususan, inson ma'naviy kamoloti haqidagi ilmiy ta'limoti ko'plab chet el va mamlakatimiz manbashunos olimlari tomonidan jiddiy o'rganilib kelinayotganligiga qaramay, uni maxsus tadqiq etish, falsafiy umumlashtirish, xulosalash va baho berish ishlari hali yakunlanmaganligini ham ta'kidlash lozim. Bu holat mutafakkirning ma'naviy madaniyat va shaxs barkamolligi to'g'risidagi ta'limotini yangicha yondashish asosida tadqiq etishning o'ta dolzarb muammo ekanligini ko'rsatmoqda.

Boshqa mutafakkirlar singari, Farobiy ham insonning mavjudligiga, uning o'rniga murojaat qildi. Al-Forobiy asarlarida insonning biologik va ijtimoiy tabiati, axloqiy va estetik qadriyatlari, jamiyatdagi o'rni va boshqa munosabatlar tadqiqotlarining bosh markaziga aylandi. Shu bois Forobiyning "Fazilatli shahar aholisining qarashlari to'g'risida risola"da odamda bir nechta mavjud kuchlar: to'yimlilik, sezgirlik, aqllilik va boshqa xususiyatlar haqida gap boradi. Ushbu kuchlar orasida aqllilik alohida ajralib turadi, "bu orqali u aqlli va mavhum fikr yuritadi, go'zalni xunukdan ajratib turadi, bilim, san'at va ilm-fanga ega bo'ladi va shu bilan shug'ullanadi" kabi g'oyalarni ilgari suradi[3:56].

Umuman olganda, o'rta asrning ko'plab ilmiy yutuqlari, Yaqin va O'rta Sharq mamlakatlarida taraqqiyparvarlik, ijtimoiy-falsafiy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shilishida Forobiyning o'rni katta. Shu bois unga "Al-muallim as-soniy" – "Ikkinchi muallim" (Aristoteldan keyin), "Sharq Arastusi" degan nisbat berildi. U Markaziy Osiyo xalqlari ijtimoiy-falsafiy tafakkuri tarixida qadimgi yunon va O'rta hamda Yaqin Sharq xalqlari falsafiy merosini mukammal egalladi va qomusiy olim sifatida o'ziga xos bo'lgan bir qator estetik qarash va g'oyalarni ilgari surdi.

Forobiyning estetik qarashlari, shuningdek, «Musiq haqida katta kitob», «Musiq haqida fikrlar», «Ritmnlarni klassifikatsiya qilish haqida kitob» kabi asarlari musiqa san'atining nazariyasi va amaliyotini ishlab chiqish masalasiga qaratilgan edi. Musiq estetikasi bilan bog'liq muammolar esa «Ilmlar klassifikatsiyasi kitobi» da yoritib berilgan.

Musiq ilmiga oid qarashlarida kuylarning turlarini o'rganish asnosida ular nimalardan tashkil topadi, inson qalbiga ta'sir qilish uchun ularning faoliyati qanday bo'lishi kerak, kabi masalalar yechimi bayon qilingan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Forobiy musiqaning asosiy tamoyillarini, u qanday o'rganilishini va ushbu san'at turining o'ziga xos xususiyatlarini nazariy jihatdan asoslaydi. Ohanglarning kelib chiqishini, ularning ma'nosi va o'zaro bog'liqligini, ohanglarning turlarini va uyg'unligini amalda qanday qo'llash mumkinligini ijrochining mahorati va shaxsiga qarab belgilaydi.

Forobiy badiiy ikki tur (she'riyat va musiqa)ning uyg'un birligi, tartibi va she'riy tuzilishi asosida birlashishi insonning ma'naviy olamiga ulkan ta'sir ko'rsatishini ta'kidlagan. Binobarin, estetik zavqning chuqurligi badiiy asarlarning yuksak barkamolligiga bog'liq. Forobiy musiqiy

san'atning amaliy qismi yuzasidan eng ko'p cholg'u va vokal ijro etish qoidalariga qiziqqanligi tabiiy. Chunki, Forobiy davrida va undan keyingi davrlarda O'rta Osiyo musiqa san'atida cholg'u va vokal ijrolari musiqa san'atining eng keng tarqalgan turlari bo'lgan va ular ko'pincha bir xil ijrochi – qo'shiqchi shaxsida birlikda ijro etilgan.

Forobiy musiqaning nazariy jihatlarini o'rganish bilan cheklanib qolmadi, u badiiy asarlar tuzilishining ichki dinamikasini, uning qurilishi va estetik materialini o'rganishga, musiqa tinglovchilar qalbiga yo'l topishiga intilish xaqida fikr yuritdi. Musiqaning bunday tarkibiy elementlari bilan Forobiy uyg'unlik va ritmni ikkita eng katta imkoniyat sifatida ko'rsatib beradi. Forobiy davridan boshlab ulamolar musiqa fani bir qator xususiyatlarga ega, deb hisoblashdi. Bu birinchi navbatda tembrdir. Muayyan tarzda tashkil etilgan turli xil tovushlarning (barcha xususiyatlari bilan) bir vaqtdagi kombinatsiyasi kuyni tashkil etadi. Ular ekspressiv ma'noga ega va tinglovchilarga nafaqat kuyning o'zi, balki uyg'unlikning o'zi ham katta zavq bag'ishlaydi. Musiqa va uslublarning ta'sir darajasi, bu davr asarlari mualliflarining fikriga ko'ra, musiqa va tinglovchining o'ziga, u ishlab chiqqan va rivojlantirgan mahorat xususiyatiga bog'liq. Inson musiqani idrok etish uchun yetarlicha tayyor bo'lishi va mukammal va rivojlangan idrok tuyg'usiga ega bo'lishi kerak[4:254-255], degan xulosaga kelinadi.

O'rta asr Sharqining musiqiy estetikasi asosan san'at va tinglovchilar o'rtasidagi ikki tomonlama munosabatlar masalasiga to'g'ri keladi. Musiqaning ta'sir darajasi nafaqat asarning badiiy darajasiga, balki tinglovchidagi badiiy dunyoqarashga, estetik zavqning asosi bo'lgan estetik hissiyotning rivojlanishiga ham bog'liqdir. Badiiy jihatdan ifodasiz asar inson qalbining yuksak impulslarini qo'zg'atish ikoniyatidan mahrum bo'lganligi sababli, estetik jihatdan rivojlanmagan odam ham olijanob, yuksak zavqlardan mahrum bo'ladi. Forobiy musiqaning insonga ta'sirining umumbashariy xususiyati to'g'risida savol qo'ydi. Inson nafaqat musiqadan estetik zavq oladi, balki axloqiy va estetik jihatdan ham takomillashadi. Boshqa tomondan, musiqa inson qalbini hayotdagi ko'plab kasalliklardan va umidsizliklardan davolaydi. Forobiy tovushlar, musiqa fani mukammallikka hali yetmaganlarni kamol toptirishi va yomon ahvolda bo'lganlarda muvozanatni saqlashi jihatidan foydali ekanligini ta'kidlaydi. Bu fan tana sog'lig'i uchun ham foydalidir, chunki tana kasal bo'lib qolganda, ruh ham quriydi, tana to'siqlarni boshdan kechirganda, ruh ham to'siqlarni boshdan kechiradi. Shuning uchun ham tovushlar orqali tananing davosida ruh davosi amalga oshiriladi[6:151], deya ta'kidlaydi.

Abu Nasr Forobiy insonning biologik va ijtimoiy tabiati, axloqiy va estetik qadriyatlarini, insonning jamiyatdagi o'rni va boshqalar haqidagi savollarga "Fazilatli shahar aholisining qarashlari to'g'risida risola"sida javob yozdi. Sog'lom inson tanasi orqali tahlil qilinadi. Yaxshi shaharda, al-Forobiy ishonganidek, inson organlari o'zlarining muayyan funktsiyalarini bajaradilar. Va jamiyatda jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy tuzilma bo'lib, bir-biri bilan o'zaro bog'liqdir va bitta maqsadga erishishga qaratilgan. Jamiyatning barcha a'zolarining asosiy maqsadi olijanob hayotga erishishdir[3].

Ana shunday fazilatli insonlar jamiyatida musiqa insonning turli kayfiyatlari (ko'tarinkilik, shodlik, zavqlanish, mushohadalik, g'amginlik, xavf-qo'rquv va b.)ni o'zida mujassamlashtiradi. Bundan tashqari, musiqa shaxsning irodaviy sifatleri (qat'iyatlik, intiluvchanlik, o'ychanlik, vazminlik va b.)ni, uning tabiati (mijozi)ni ham yorqin aks ettiradi.

Musiqaning odam ongi va hissiyotiga ta'sir etishning ajoyib kuchi uning ruhiy jarayonlarga hamohang bo'lgan muayyan jarayonli tabiati bilan bog'liqdir. Musiqa asarlari mazmunida badiiy g'oyalar umumlashgan holda berilib, musiqali obrazlarning o'zaro munosabatlari (taqqoslanish, to'qnashuv, rivojlanish kabi) jarayonida shakllanadi. Mazkur jarayonning xususiyatlariga ko'ra musiqaning mazmuni ham turli – epik, dramatik, lirik belgilarga ega bo'lishi mumkin. Bulardan insonning ichki dunyosi, ruhiy holatlarini ifodalashga moyil bo'lgan lirik musiqaning "botiniy" tabiatiga ancha yaqindir. Musiqaning mazmuni – shaxsiy, milliy va umumbashariy badiiy qiymatlarning birligidan iborat bo'lib, bunda ma'lum xalq, jamiyat va tarixiy davrga xos ruhiy tarovat, sur'at, ijtimoiy fikr va kechinmalar umumlashgan holda ifodalanadi. Musiqa shakllari har bir davrning ma'naviy-ma'rifiy talablariga javob bergan holda, ayni vaqtda inson faoliyatining ko'pgina jabhalari (muayyan jamoaviy tadbirlar, odamlarning o'zaro etik va estetik ta'sir etish, muloqot qilish jarayonlari) bilan mushtarakdir. Musiqaning, ayniqsa, insonning axloqiy va estetik didini shakllantirish, hissiy tuyg'ularini rivojlantirish, ijodiy qobiliyatlarini rag'batlantirish vositasi sifatida roli juda muhimdir.

PEDAGOGIKA

Eng muhimi, odamlar doimo baxtni xohlashadi va musiqa uning manbai hayotiy energiya muvaffaqiyat va farovonlik manbai hisoblanadi. Musiqa hayotning to'rt maqsadiga erishish vositasi deb nomlanadi: taqvodorlik, boyluk, zavq va yakuniy ozodlik. Shuning uchun ham qo'shiq kuylashga va tinglashga astoydil intilish kerak.

Forobiy musiqaning insonga axloqiy ta'siri zavq hissi bilan bog'liq degan g'oyani juda nozik va oqilona yo'l bilan kiritadi. Musiqa odamlarni (reaksion tasavvufda bo'lgani kabi) tasavvufga, ekstazga olib kelmaydi, balki odamning kayfiyatini ko'taradi, jismoniy va ruhiy tiklanishiga yordam beradi. Bu jarayon insonning yengil tuyg'ulari, estetik zavqlanish tuyg'ulari bilan chambarchas bog'liqdir. Musiqa estetikasida u, nazariya va amaliyot, aql va xissiyotlar, ratsional bilish va emotsional huzur olish kabilarning birligi tarafini yoqlaydi. Mutafakkirning bunday umumiy nazariy munosabati unga badiiy asarlar g'oyasini insoniyat jamiyatini birlashtiruvchi vosita, odamlar va millatlar o'rtasidagi aloqa vositasi sifatida rivojlantirish imkoniyatini beradi. Forobiyning estetika nazariyasi uning gumanistik dunyoqarashining namoyon bo'lish qirralaridan biri bo'lib, musiqaning tarbiyaviy ahamiyati, estetik zavq tabiati haqidagi ta'limotlari o'z davri uchun katta ahamiyatga ega edi. Reaksion tasavvuf mafkurasi hukmronlik qilayotgan bir paytda, taqvodor islom ilohiyotchilari ilohiy vahiyning go'zalligi haqida fikr yuritishga odamlarni jalb qilish uchun har qanday yo'l bilan harakat qilishgan bir paytda, musiqa ilohiy ilhomning namoyon bo'lishi deb tasavvur etilganida, muammoning bunday ko'ndalang qo'yilishi katta jasorat talab qilardi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Abu Nasr Forobiyning musiqaning tarbiyaviy ahamiyatini ochib berish to'g'risidagi fikr-mulohazalari asosida bo'lg'usi musiqa ta'limi o'qituvchisining kasbiy mohirligi, pedagogik jarayonni tashkiliy, metodik, ruhiy va subyektiv jihatdan o'ta ustalik bilan tashkil etish hamda boshqarish qobiliyati va malakasiga ega bo'lishida muhimdir. Chunki, pedagogik mahorat bevosita kasbiy-pedagogik faoliyatda ko'rinadi. Shu sababli u pedagogik jarayonning umumiy mohiyatini chuqur anglay olishi, bu jarayonda ustuvor ahamiyat kasb etadigan qonuniyatlardan xabardor bo'lishi, pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta egallay bilishi lozim. Ta'lim jarayonining faol ishtirokchisi bo'lgan pedagogning pedagogik mahorati uning shaxsi, ish tajribasi, fuqarolik maqomi, mutaxassis sifatidagi mavqei, u tomonidan pedagogik texnikaning yetarli darajada egallanganligi, kasbiy faoliyatning individualligidan dalolat beradi.

Forobiyning musiqani insonga axloqiy ta'siri zavq hissi bilan bog'liq degan g'oyasi asosida ta'kidlashimiz kerakki, bo'lg'usi musiqa ta'limi o'qituvchisi pedagogik mahorat asosida bir holatdan ikkinchi yuqori holatga o'tish, o'sish, yuksalish, taraqqiyot, ravnaq, insonda nasliy omil, muhit, yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya va shaxsiy faollik yordamida bilim, ko'nikma, malaka va fazilatlarini tarkib toptirishga erishadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: «O'zbekiston» NMIU, 2017. - 592 b.
2. Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida 2023-yil 22-dekabr kuni Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishidagi nutqidan. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
3. Ал-Форобий. Фазилатли шаҳар аҳолисининг қарашлари тўғрисида рисола // фалсафий рисолалар. Олма-Ота: Илм, 1973. – 430 б.
4. Раджабов П., Сагадеев А. Ближний и Средний Восток. Сб. – Музыкальная эстетика стран Востока. М.:Музыка, 1967. – С. 254-255.
5. Раматов Ж.С. Абу Наср Форобийнинг фалсафий қарашлари, хусусан, инсон маънавий камолоти ҳақидаги илмий-фалсафий таълимоти. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 6 | 2022. – Б. 1170-1179.
6. Фараби. О происхождении наук. С.Н.Григорян. «Из истории философии Средней Азии и Ирана VII-XII вв.». – М.: Изд. АН СССР, 1960.